



## KASB – HUNAR MAKTABLARIDA O‘QUVCHILARNING CHET TILINI O‘RGANISHDA NUTQ MALAKALARINI O‘STIRISH MASALASI

Raxmatova Mohichehra Islomovna

*Buxoro tuman kasb-hunar maktabi ingliz tili fani o‘qituvchisi.*

Bugungi kunda chet tillarni ayniqsa, ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan talab va istak juda ham kuchli. Kasb-hunar maktabida asosan yuqori sinf o‘quvchilari o‘qitilishini inobatga olsak, ularning aksariyat qismi oliy o‘quv yurtlariga kirish istagida bo‘ladi. Shuning uchun ular til bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladilar. O‘quvchi til ko‘nikmalarini barchasini: tinglab tushunish, o‘qish, yozish va ayniqsa gapirish ko‘nikmalarini puxta o‘zlashtirishlari muhim.

Barchamizga ayonki, chet tilida talabalarning og‘zaki nutqini o‘stirish o‘qitishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Hozirgi kun davr talabiga binoan kasb-hunar maktabi bitiruvchilar chet tilida og‘zaki axborot bera olishlari, o‘z mutaxassisliklariga oid so‘z va so‘z birikmalarni bilishlari, suhbatlasha olishlari, o‘rganilgan tematikaga bog‘liq bo‘lgan chet tilidagi nutqni tinglab tushunishlari, o‘z fikrlarini erkin bayon eta olishlari va yozuv malakalariga ham ega bo‘lishlari kerak. Kasb-hunar maktabi bitiruvchilar chet tillarini o‘qitishning hozirgi zamon amaliyotida og‘zaki nutq alohida munosib o‘rinni egallaydi. O‘qituvchilarning diqqat e‘tibori, asosan, og‘zaki nutqni rivojlantirish mashqlari turlarini ko‘paytirishga, ularning qiziqarli bo‘lishiga, dars olib borishning munosib tezligini ta‘minlashga, darsga talabalarning juda ko‘pchiligini jalb etishga qaratilgan. Mashg‘ulotlarda interfaol o‘yinlar, ashulalar, har xil turdagi musobaqalar ko‘p o‘rinni egallaydi. Ko‘rgazmali vositalardan rasmlar va multimedialar, tarqatma materiallar, filmlardan foydalanishga ko‘p e‘tibor berilmoqda. Bu usullarning barchasi talabalarning faoliyatini oshirishga, ularda chet tili darsiga katta qiziqish uyg‘otishga yo‘naltirilgan.

Og‘zaki nutq, faoliyat sifatida juda murakkab psixo-fiziologik jarayon bo‘lib, uning asosini bosh miya qobig‘i birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o‘zaro aloqasi tashkil etadi.

Og‘zaki nutq ma‘lum sharoitlarda yuz beradi va bu sharoitlar nutq xususiyatiga ta‘sir etadi. Bu sharoitlar tildan tashqari ekstralingvistik tartibdadir. Ularda nutq faoliyati sodir bo‘ladigan vaziyat, muhit, so‘zlovchining yoshi va o‘sish darajasi, suhbat mavzusi,

tinglovchining nutqni idrok etishga diqqat qilishi, mimika, imo-ishoralari va boshqalar kiradi. Bu omillarning barchasi avvalo dialogik nutqda, ma‘lum darajada monologik nutqda ham faol rol o‘ynaydi.

Og‘zaki nutqni o‘rgatish metodikasida til materialini tanlash va taqsimlash muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Muomala maqsadida nutqdan foydalanishdagi kundalik tajribamiz til vositalarining cheksiz ko‘pligidan dalolat beradi. Til o‘z vositalari bilan xalqning tobora taraqqiy etib borayotgan moddiy va ma‘naviy hayotini aks ettira borib, to‘xtovsiz taraqqiy etmoqda. Ongimizda paydo bo‘luvchi va zo‘r texnika hamda ilmiy taraqqiyot tufayli, ba‘zan esa turmushning mutlaqo yangi shakllari tufayli hayotga da‘vat



etilgan har qanday fikr til vositalari bilan o'zining tegishli shaklini topishi shart va haqiqatan ham shaklini topmoqda.

Umumiy xarakterdagi fikrnigina emas, balki har xil kayfiyat, kechinmalar va shunga o'xshash holatlarni ifoda etadigan og'zaki nutq turlicha intonatsiya boyligi bilan tavsiflanadi. Erkin nutqda tegishli leksikani tanlash, ba'zan esa so'zlarni alohida tartibga solish orqali so'zlovchining ruhiy kayfiyatlarini aks ettiradigan emfatik intonatsiyaning turli variantlari ayniqsa ajratiladi.

Umuman, og'zaki nutqning xususiyatlari bilan bir qatorda, dialogik va monologik nutqlarning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilganda, ma'lumki, dialog ikki yoki bir necha shaxsning bevosita muomalasi natijasida odatda bir-birini vujudga keltiradigan javoblar yoki talay fikrlar zanjiridan iboratdir.

Monolog bir kishining o'z fikri, istagi, voqealarga bo'lgan munosabati kabilarni ozmi-ko'pmi keng shaklda bayon etadigan nutqidir. Og'zaki dialogik nutq o'zining til uslubi xususiyatiga ko'ra yozma nutqdan monologik nutqqa qaraganda, ko'proq farq qiladi, chunki og'zaki dialogik nutqda tildan tashqari turli vositalar (imo-ishoralar, mimika va boshqalar) monologga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Ba'zan biror javob umuman ortiqcha bo'lib qoladi, imo-ishora qilishning o'zi, masalan, barchasi tushunarli bo'lsin uchun, predmetni ko'rsatishning o'zi kifoya qiladi. Shu sababli aynan og'zaki dialogik nutq uchun birinchi navbatda yuqorida ko'rsatilgan uslub xususiyatlari xosdir.

Monologik nutqning og'zaki va yozma shakli o'rtasidagi farq dialogik nutqning og'zaki va yozma shakllari o'rtasidagi farqdan birmuncha kamdir. Biror voqea haqida hikoya qiluvchi yoki qator faktlarni ma'lum qiluvchi so'zlovchi tinglovchilar o'z nutqini og'izdan so'z chiqishi bilanoq tushunib oladilar degan o'yg'a bormaydi, albatta, mimika va boshqa ekstralingvistik vositalar ko'p hollarda bu o'rinda ham foydali bo'lishiga qaramay, ular talaffuzning to'la uslubiga, ommabop til vositalariga murojaat qilishlari shart. Bu vositalardan foydalanish monologning tematikasi va mazmuniga bog'liqdir.

Og'zaki monologik nutq materialiy bayon etish xususiyatiga ko'ra ham yozma nutqqa yaqindir. Bu nutq dialogik nutqqa nisbatan ko'proq izchil, mantiqiy, rejali bo'ladi. Dialogda bir savoldan ikkinchisiga, bir mavzudan ikkinchi bir mavzuga birdan o'tib ketish, biror narsani noaniq yoki noto'g'ri tushungan suhbatdoshning muayyan so'zi yoki gapiga hozirgina bergan javobni yana takrorlash hollari ko'p uchraydi. Dialogik nutq, odatda, maxsus belgilanmagan, rejasiz, stixiyali ravishda, monologik nutq esa ancha mantiqiy, rejali ravishda sodir bo'ladi.

Odatdagi hayotiy sharoitda dialogik nutq ko'pincha tayyorlanilmagan holda sodir bo'ladi. Monologik nutq ko'pincha tayyorlanilgan bo'ladi (doklad, referat, axborot, ma'lumot va h.), shu bilan birga tayyorlanilmagan bo'lishi ham mumkin (biror masala yuzasidan o'z nuqtai-nazarini bildirish). Tayyorlanilmagan monologik nutq tayyorlanilgan monologik nutqdan mazmun jihatdan izchil va mantiqiy ifoda qilinishi bilan farq qiladi.

Shuningdek, oliy o'quv yurtlarida chet tilini o'qitishdan maqsad talabalarni tayyorlanilmagan og'zaki nutqqa o'rgatishdir. Talabalarni o'rganilgan til materiallaridan nutq situatsiyasiga muvofiq o'z fikrlarini ifodalash uchun foydalanishga o'rgatish zarur. Biroq ta'lim jarayonida talaba o'zining shaxsiy fikrini ifoda etishi uchun qo'llashi mumkin



bo'lgan hamda u eshitib tushunishi zarur bo'lgan material hajmini chegaralashga imkon bermaydi. Suhbat davomida mavzudan kutilmagan holda har qanday chetga chiqishlar bo'lishi mumkin, chunki tabiiy suhbat hamma vaqt ham biror mantiqiy reja asosida davom etavermaydi. Shuning uchun dialogik nutqni o'rgatishda bu qiyinchiliklarni bartaraf etish maqsadida o'quvchilarning nutq boyligini oshiradigan maxsus qiziqarli o'yinli mashqlar tayrlash zarurdir.

Ma'lum bir malakani oshirish uchun taxminan bir xilda bo'lgan materialni, bu materialni eshitib bilib olish maqsadida aql-idrok bilan o'ylab tushunib olish yoki o'qish jarayonida uchraganligi sababli oson tushunib olish uchun o'sha materialning o'zini bir oz kengaytirish ko'zda tutiladi. Dialogik va monologik nutqlarning xususiyatiga suhbatning mavzusi va mazmuni, suhbatda qatnashuvchi yoki uni tinglovchilarning faoliyati turlari, yoshlari, bilim darajalari, suhbatdan qanchalik manfaatdor ekanliklari va boshqa ko'pgina omillar ta'sir qiladi. Jumladan, og'zaki nutq turining har biri o'zining mashq qilish sistemasini, o'ziningish metodini talab qiladi. Bu ayniqsa, chet tili o'rganuvchilar uchun nutqning mazkur turlaridagi vazifalar va qiyinchiliklarning o'ziga xosligidan kelib chiqadi. Monologik nutqda til o'rganuvchilarning birinchi vazifasi o'rganilayotgan mavzu yuzasidan chet tilida aytib bera oladigan ma'lumotlarni aniqlab va tushunib olishdan iboratdir. O'quvchilarning tilga doir bilimlarni tobora ko'proq egallab borish bilan birga, o'rganilayotgan mavzu bo'yicha shaxsiy fikrlarni ifoda etib berish imkoniyatlari ham kengayishini sezish mumkin. Til o'qitish jarayonida o'rganiladigan yangi til materiali o'quvchilarning o'z nutqlarini aytib bera oladigan faktlarning oshishi hisobigagina boyitishga yo'l ochib qolmay, balki bu faktlarga o'z munosabatlarini ifoda etish, faktlarga asoslanib ma'lum umumlashmalar qilish imkonini berishini ular har doim ravshan tasavvur etishini misollar bilan ko'rsatish lozim.

O'z fikrini rivojlantirish, nutqni mantiqiy tuzish zarurligi sababli monologik nutqning o'sishi bilan bog'liq bo'lgan vazifalardan yana biri tildan qanchalik bilim olganliklari bilan birga til o'rganuvchilarning yosh xususiyatlarini ham nazarda tutish lozim. Mavzular o'z mantiqiy tuzilishiga ko'ra, aynan shu yoshdagi bolaning aqliy o'sishiga mos kelishi lozim, chunki har bir jumlaning boshlanishi bola nutqidagi qonuniy bir holdir. Eng oddiy bo'lsa ham, haqiqiy monologik nutqni eshitib tushunishda o'quvchi gap modellarining xilma-xil turlariga duch keladi. Nutqning mantiqiy rejasini murakkablashtirish va til materialini to'plash natijasida boyitish nutq egallashda muhim vazifadir. U nutqni o'quvchilar aqlining o'sish darajasiga mos holda fikrni to'la ifoda etadigan qilib tuzish imkonini beradi.

Nihoyat, dialogik nutqqa xos bo'lgan holatlardan yana biri dialog qatnashchilarining har biri nutqda savollargagina javob berib qolmay, o'z navbatida, nutq oqimining rivoji uchun imkon, sabab topishi kerakligi, aks holda suhbatbutunlay to'xtab qolishi yoki faqat savolga javob berishdan iborat "suhbat"ga aylanishi mumkinligidir.

So'nggi yillarda mashg'ulot mavzusiga oid bir mavzuni hikoya qilib berish chet tillarni o'qitishning barcha bosqichlarida monologik nutqni o'rgatishda markaziy o'rinni egallab kelmoqda. Hozirgi chiqqan qo'llanmalarning ba'zida, masalan, shunday vazifalarga duch kelamiz. "Hikoya qilib berish... bilimni mustahkamlash va og'zaki nutq ko'nikmalarini o'stirishning eng muhim usullaridan biridir".



O'qitish amaliyotida (Speaking)matnlarni so'zlab berish, (Listening) eshittirilgan matnni tushunib, u asosda mashqlar bajarish monologik og'zaki nutqda mashq sifatidainterfaol usullarni qo'llagan holda juda ko'p qo'llanilmoqda. Matn mashg'ulotda tinglanilib, muhokama qilinadi, mashqlar yordamida o'quvchining qanchalik tushunganligi tekshiriladi, savollarga javob beriladi va bu javoblarda matndagi ayrim jumla yoki qismlar keltiriladi. Shundan keyin yakunlovchi mashq sifatida o'quvchilar matnni, odatdagidek, imkon boricha eshitib tushunganlariga yaqin qilib gapirib beradi. Bu bilan ko'p hollarda monologik og'zaki nutq yuzasidan olib boriladigan ish yaxshi natijalar bilan tugaydi. Bu borada chet tili dasturida ko'rsatilganidek, o'rganilgan til materialini matndan yangi nutq vaziyatiga ko'chirishga, ya'ni o'quvchilarni o'z fikrlarini bayon etish yo'liga boshlashga harakat qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilar rejadagi biror mavzu yuzasidan gapirishga topshiriq olganlarida, ular dars jarayonida o'tilgan tegishli matnni eslashga, turli interfaol usulda tashkil etilgan qiziqarli vaziyatli jarayonlarni esga tushirishga, uni o'zgarishsiz aytib berishga, fikrlash doirasini kengaytirishga harakat qilishlari ajablanarli emas.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, og'zaki nutqni o'stirish yuzasidan olib boriladigan ishlar barcha zarur og'zaki, shu jumladan, nutqni eshitib tushunish malakalarining teng o'sishini ta'minlamog'i darkor. Nutqni eshitib tushunish malakasi gapirishni o'rgatish bilan bir vaqtda va o'zaro aloqada o'sishi kerak. Boshlang'ich davrda bu malakani egallash, gapirish malakasini o'stirish bilan bevosita bog'liqligini, keyinchalik esa bu malaka dialogik va monologik nutqning o'rganish mahoratiga qaraganda ancha tez egallanishi mumkinligini hisobga olishimiz darkor.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'rta ta'lim muassasalarining 10-11- sinf va o'rta maxsus , kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. F. Rashidova, Z. Karimova.2017yil.

2. "Xorijiy tillar o'qituvchilari uchun CEFR haqida qo'llanma" L. Kirkham, A. Iriskulov, F. rashidova.2013yil.

3. Internet ma'lumotlari.